



## Abdullo Oripov she'riyatida xalq og'zaki ijodining o'rni va mumtoz ananalar sintezi

**Batirova Nazokat  
Baxtiyorovna**

*(Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent  
axborot texnologiyalari universiteti, assistenti)*

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov ijodida xalq og'zaki ijodi an'analari, xususan, maqol va iboralarning badiiy transformatsiyasi lingvopoetik va kognitiv jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqotning dolzarbligi shoirning individual-mental olamida xalq donishmandligining shunchaki iqtibos emas, balki tizimli qayta ishlangan lirik konsept sifatida namoyon bo'lishi bilan belgilangan. Maqolada shoirning "O'zbekiston", "Onajon", "Hikmat nimaligini tushunmas bola" kabi asarlari misolida paremiologik birliklarning dekonstruksiya, reinterpretatsiya va sintez bosqichlari tahlil qilingan. Shuningdek, Abdulla Oripovning "mental portreti" tushunchasiga alohida to'xtalib o'tilgan bo'lib, unda milliy kodlar - andisha, shukronalik, mehr-oqibat kabi tushunchalarning tildagi in'ikosi ochib berilgan. Muallif shoirning irsoli masal san'atiga yangicha yondashuvini, ya'ni xalqona soddalik bilan mumtoz falsafiylikning organik sintezini dalillangan hamda Abdulla Oripov xalq maqollarini intellektualizatsiya qilish orqali o'zbek she'riyatida milliy tafakkurning yangi badiiy modelini yaratganligi keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Abdulla Oripov, paremiya, folklorizm, mental portret, lingvokognitiv tahlil, irsoli masal, transformatsiya, milliy kod, dekonstruksiya, badiiy tafakkur.

### Kirish.

Yigirmanchi asr o'zbek she'riyatining cho'qqisi hisoblangan Abdulla Oripov ijodi milliy tafakkurning badiiy in'ikosi sifatida e'tirof etiladi. Shoir asarlari nafaqat zamonaviy o'zbek she'riyati, balki asrlar davomida shakllangan xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiy merosning organik sintezidan iboratdir. Biroq, bugungi kunda Abdulla Oripov ishlarini tadqiq qiluvchi ilmiy maktablarda shoirning folklorga murojaati ko'pincha sirtqi (shakliy) jihatdan o'rganilgan bo'lib, xalq maqollari va iboralari shoirning **individual-mental** olamida qanday transformatsiyaga uchrashi masalasi hali-hanuz tizimli tadqiq etilmagan. Ushbu bo'shliq shoir ijodidagi milliy konseptlarning lingvokognitiv tahlilini talab qiladi.

Abdulla Oripov ijodining ildizlarini mumtoz adabiyot va folklor bilan bog'liqligini tadqiq etgan olimlar orasida filologiya fanlari doktori, professor Nurboy

Jabborovning o'zni alohida. Olim o'zining bir qancha ilmiy ishlarida [1, 45-b.] shoir ijodidagi milliy o'zlikni anglash jarayonini tahlil qilar ekan, Abdulla Oripovning xalqona soddalik va mumtoz murakkablik o'rtasidagi oltin ko'prikn topganini ta'kidlaydi. Shuningdek, shoir folklor namunalarini shunchaki iqtibos sifatida keltirmaydi, balki ularni o'zbek xalqining mentalitetiga xos bo'lgan "andisha", "nomus", "sabr" kabi tushunchalar bilan boyitadi.

Shu bilan birga, shuni ta'kidlash joizki, ushbu sohadagi izlanishlarida asosiy e'tibor shoirning ijtimoiy-estetik qarashlariga qaratilgan bo'lib, xalq maqollarining shoir psixologik olamidagi **qayta ishlanish mexanizmlari** lingvopoetik jihatdan to'laqonli yoritilmagan.

Xalq maqollari va iboralari - bu xalqning ko'p asrlik tajribasi jamlangan "tayyor bloklar"dir. Abdulla Oripov she'riyatida ushbu bloklar quyidagi sabablarga ko'ra tizimli o'rganilmagan.

- irsoli masal san'atining yangicha talqini: Mumtoz she'riyatda maqol keltirish (irsoli masal) ko'proq g'oyani dalillash uchun xizmat qilgan bo'lsa, Oripovda maqol she'rning ichiga "erib" ketadi. Bu jarayonni S. Solijonov [3, 12-b.] "folklorizmlarning individualizatsiyasi" deb ataydi.

- frazeologik variantdorlik: Shoir xalq iborasining leksik tarkibini o'zgartirib, unga yangi emotsional bo'yoq beradi. Masalan, "boshi osmonga yetmoq" iborasini shoir o'z kechinmalari kontekstida milliy g'urur darajasiga ko'taradi.

- mental modellashtirish: Maqollar shoir she'riyatida shunchaki hikmat emas, balki lirik qahramonning dunyoqarashini shakllantiruvchi kognitiv model bo'lib xizmat qiladi.

Abdulla Oripovning "**O'zbekiston**", "**Onajon**", "**Hikmat nimaligini tushunmas bola**" kabi she'rlarida qo'llangan paremiologik birliklar va ularning xalq orasidagi asl ko'rinishi qiyosiy tahlil qilinishi lozim. Shoirning mental olamida xalq donishmandligi quyidagi bosqichlarda qayta ishlanadi.

- dekonstruksiya: Maqolning an'anaviy ma'nosini buzish.
- reinterpretsiya: Maqolga shaxsiy va falsafiy mazmun yuklash.
- sintez: Yangi, mualliflik "aforizmi" darajasiga olib chiqish.

### **Metodologiya.**

Abdulla Oripov she'riyatida xalq maqollarining qayta ishlanishini o'rganishda lingvopoetik tahlil va konseptual sintez metodlaridan foydalaniladi. Shoir xalq og'zaki ijodi namunalarini matnga shunchaki ko'chirmaydi, balki ularning barqaror strukturasi "parchalab", yangi lirik mazmun yuklaydi.

Xalqimizda "**Vatan - ostonadan boshlanadi**" yoki "**Ona yer - oltin beshik**" kabi tushunchalar mental qolip sifatida yashaydi.

Shoir uslubiga ko'ra, Oripov ushbu tushunchalarni "parchalab", ularni shaxsiylashtiradi. Masalan, "**Yurtim, senga bitta gapim bor...**" satrlari bilan boshlanuvchi murojaatda xalqona "**ona yurt**" tushunchasi shoirning ichki dardi (mental olami) bilan birlashadi.

Shoir maqoldagi umumiy va statik ma'noni dinamik holatga keltiradi. Nurboy Jabborov ta'kidlaganidek, shoir "**milliy an'anaga tayanib, uni zamonaviy tafakkur sarchashmalariga ulaydi**" [1, 56-b.].

Shuningdek “Onajon” (1969) she’rida irsoli masalning yashirin qo’llanilishi kuzatish mumkin. Bu she’rda “*Onaning ko’ngli bolada, bolaning ko’ngli dalada*” degan xalq hikmati metodologik asos bo’lib xizmat qiladi, biroq shoir uni so’zma-so’z ishlatmaydi.

Shoir maqolning birinchi qismini (onaning ko’ngli) “*Munis onajon*” obrazi orqali, ikkinchi qismini (bolaning ko’ngli dalada) esa “*Dunyoni kezibman sargardon bo’lib*” misrasi orqali ifodalaydi.

Maqolning an’anaviy tarbiyaviy ohangi “*kechikkan afsus*” lirik konseptiga aylanadi. Bu jarayonni adabiyotshunos Nurboy Jabborov shoirning “*folklorizmga yangicha yondashuvi*” deb baholagan [4, 112-b.].

“*Hikmat nimaligini tushunmas bola*” she’ri orqali esa paremiologik inversiya (teskari aylantirish) orqali bu asarda shoir xalq orasidagi “*Bolaning tili - bolda*”, “*Kattaning gapi - daryoning suvi*” kabi paremiyalarning semantik qirralarini “parchalaydi”.

Shoir “*bola*” va “*hikmat*” (donolik) tushunchalarini qarama-qarshi qo’yadi. Xalq tajribasida bola hikmatni tushunmaydi deb qaralsa, Shoir aynan bolaning beg’uborligi - eng oliy hikmatdir deb tasvirlaydi. Shuningdek, shoir bu yerda *antiteza* usulini qo’llab, xalqona donishmandlik mezonini kattalardan bolalarga ko’chiradi. Bu shoirning mental olamidagi “*soflik*” va “*haqiqat*” konseptlarining ustuvorligini ko’rsatadi.

### **Natijalar va munozara.**

Ushbu metodologik yondashuv shuni ko’rsatadiki, Abdulla Oripov she’riyatida maqollar shunchaki badiiy bezak emas, balki asarning konseptual skeletini tashkil etadi. Shoir ularni o’zbekona “*andisha*” va “*shukronalik*” mentaliteti orqali qayta ishlab, xalq hikmatlarini intellektual she’riyat darajasiga ko’targanini anglatadi [5].

Shuningdek, Abdulla Oripov ijodida folklorizm hodisasi shunchaki tashqi ta’sir emas, balki shoirning individual-badiiy tafakkurini shakllantiruvchi ichki mexanizmdir. Yuqoridagilardan kelib chiqib natijalarni izohlash mumkin:

**1. Paremiologik transformatsiya natijalari.** Shoir xalq maqollari va iboralari ustida ishlashda uch xil usuldan foydalangan:

- **leksik-semantik yangilash:** Odatda xalq maqollarining shakli saqlangan holda, uning ichki mantiqi lirik qahramonning ruhiy holatiga moslashtirilgan. Masalan, “*O’zbekiston*” qasidasida Vatan haqidagi an’anaviy ta’riflar shoirning mental olamida “*sajdagoh*” va “*g’urur*” konseptlari bilan boyitilgan.

- **parchalash (fragmentation):** Xalq maqollarining faqat bir qismi olinib, qolgan qismi shoirning falsafiy mushohadasi bilan to’ldirilgan.

- **inversiya (teskari ma’no yuklash):** “*Hikmat nimaligini tushunmas bola*” she’rida ko’ringanidek, xalqona “*donolik kattalarga xos*” degan qarash teskarisiga aylantirilib, bolalikning beg’uborligi eng oliy hikmat sifatida taqdim etilgan.

**2. Mumtoz an’analar va folklor sintezi.** Nurboy Jabborov o’zining ilmiy ishlarida ta’kidlaganidek, Abdulla Oripov she’riyatida irsoli masal (maqol keltirish) san’ati mumtoz adabiyotdagi kabi shunchaki dalillash uchun emas, balki asar g’oyasini harakatlantiruvchi “*motor*” vazifasini o’tagan [1, 142-b.]. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki:

- shoir mumtoz she'riyatdagi falsafiylikni folklorga xos soddalik bilan birlashtirgan.

- **“Onajon”** turkumidagi she'rlarda ona obrazi ham dostonlardagi matonatli ona, ham mumtoz g'azallardagi mo'tabar zot, ham kundalik hayotdagi oddiy o'zbek ayoli sifatlarining sintezidan iborat.

Ushbu sohada olib borilgan ilmiy izlanishlarda Abdulla Oripovning folklorga munosabati ko'proq **“xalqchilik”** mezoni bilan o'lchanib kelgan. Biroq, bizning tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, bu jarayon ancha murakkabroq hisoblanadi. Shoir xalq maqollarini qayta ishlash orqali o'zbek xalqining **mental portretini** yangilash imkoniyatini taqdim etgan.

**Mental portret** - bu adabiyotshunoslik, psixologiya va lingvokulturologiya fanlari chorrahasida paydo bo'lgan tushuncha bo'lib, u shaxsning (shoirning yoki lirik qahramonning) ichki dunyosi, tafakkur tarzi, dunyoqarashi va milliy o'ziga xosligi majmuini anglatadi.

Soddaroq qilib aytganda, agar oddiy portret insonning tashqi qiyofasini (ko'zi, qoshi, bo'yi) tasvirlasa, mental portret uning qanday fikrlashi, nimalarni muqaddas deb bilishi va voqelikni qaysi **“filtr”** orqali qabul qilishini ko'rsatadi.

Abdulla Oripov she'riyati misolida **“mental portret”** tushunchasini quyidagi tarkibiy qismlarga bo'lish mumkin:

**a). Milliy kodlar va qadriyatlar.** Shoirning mental portretida o'zbek xalqiga xos bo'lgan tushunchalar (konseptlar) markaziy o'rin egallaydi. Bular:

- **andisha:** Hamma narsani ochiq aytmaslik, pardali gapirish.

- **shukronalik:** Boriga qanoat qilish, yaratganga talpinish.

- **mehr-oqibat:** Ayniqsa, ona va vatan timsolidagi cheksiz fidoyilik.

**b). Til orqali namoyon bo'lish (Lingvomentallik).** Insonning qanday fikrlashi uning tilida ko'rinadi. Abdulla Oripov xalq maqollarini “parchalab”, ularga yangi ma'no berganda, u o'zbek xalqining **eskirmaydigan mentalitetini zamonaviy tafakkur bilan boyitadi**. Masalan, u oddiy bir xalqona iboradan koinot darajasidagi falsafani chiqarib oladi. Bu uning **intellektual mental portretidir**.

**c). Psixologik holat.** Mental portretida insonning ruhiy iztiroblari ham aks etadi. Abdulla Oripovning lirik qahramoni - hamisha mushohada yurituvchi, o'zini va dunyoni tushunishga harakat qiladigan, biroz mahzun, lekin g'ururli shaxs. Bu - shoirning **ruhiy-mental qiyofasi** hisoblanadi.

Ushbu maqolada **“Maqollar shoir mental olamida qayta ishlanadi”** deganimizda, shuni nazarda tutilgani, Abdulla Oripov maqollarning shunchaki so'zini emas, balki o'sha maqol ortida turgan **xalqona mantiqni (mentalitetni)** oladi va uni o'zining zamonaviy shoir sifatidagi shaxsiy idroki bilan birlashtiradi.

Misol uchun, xalq maqolida ona – **“farzandni tarbiya qiluvchi”** bo'lsa, Abdulla Oripovning mental portretida ona – **“butun dunyodagi adolatsizliklardan panoh beruvchi muqaddas qo'rg'on”**dir.

Umuman olganda shoirning mental portreti bu shoirning she'riyat orqali chizilgan ma'naviy-ruhiy qiyofasidir.

**Xulosa.**

Abdulla Oripov she'riyatida xalq og'zaki ijodi va mumtoz an'analar sintezini tadqiq etish natijasida quyidagi fundamental xulosalarga kelindi.

**1. Paremiologik birliklarning konseptual yangilanishi.** Olib borilgan tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, shoir xalq maqollari va iboralarini matnga shunchaki “badiiy bezak” sifatida olib kirmaydi. U paremiyalarning barqaror strukturasi buzish (dekonstruksiya) orqali ularning semantik ko‘lamini kengaytiradi. Xususan, “O‘zbekiston” qasidasida vatan haqidagi an’anaviy qarashlar, “Onajon” she’ridagi farzandlik burchi bilan bog‘liq xalqona andishalar shoirning individual-mental filtri orqali o‘tib, umuminsoniy falsafiy darajaga ko‘tarilgan. Bu jarayonda maqol o‘zining tarbiyaviy-didaktik qobig‘idan chiqib, mavjudlik mohiyati kasb etadi.

**2. Shoir mental olamining o‘ziga xosligi.** Maqolada ko‘rib chiqilgan “mental portret” tushunchasi Abdulla Oripov ijodida milliy kodlarning (sabr, andisha, g‘urur, shukronalik) tildagi in’ikosi sifatida namoyon bo‘ladi. Shoirning mental olamida xalq donishmandligi shaxsiy kechinma bilan qorishib ketadi. Natijada, o‘quvchi she’r o‘qiyotganda tayyor maqolga emas, balki shoir tomonidan qayta kashf etilgan “yangi haqiqat”ga duch keladi. Bu esa Abdulla Oripov ishlarini tadqiq qiluvchi ilmiy maktablarda hali tizimli o‘rganilmagan “lingvomentallik” hodisasini yuzaga chiqaradi.

**3. Mumtoz va xalqona an’analar sintezining yangi bosqichi.** Abdulla Oripov mumtoz adabiyotdagi *irsoli masal* san’atini xalq og‘zaki ijodiga shunday *soddalik* bilan payvandladiki, uning she’rlarida Navoiyona teranlik va baxshiyona samimiylik uyg‘unlashgan. Shoir xalqona iboralarni o‘zbek mentalitetining eng nozik qirralarini ochib beruvchi vositaga aylantirgan.

**4. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati va yakuniy xulosa.** Ushbu maqolada Abdulla Oripov she’riyatidagi xalq maqollari va iboralarining shoir mental olamida qayta ishlanish mexanizmlari yoritib berildi. Umuman olganda, Abdulla Oripov o‘zbek she’riyatiga xalq donishmandligini shunchaki qaytarmadi, balki uni *intellektualizatsiya* qildi. Shoirning mental portretini tashkil etuvchi milliy qadriyatlar uning har bir satrida paremiologik transformatsiya orqali yashaydi. Bu esa kelajakda shoir ijodini nafaqat adabiyotshunoslik, balki kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham o‘rganish uchun keng istiqbollar ochadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Jabborov N., Zamon, mezon, mahorat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2015. – 216 b.

2. Jabborov N. Ma’rifat tayanchi – milliy adabiyot. // “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi. – 2018. – 24-avgust.

3. Solijonov S. Abdulla Oripov uslubi va badiiy mahorati. Monografiya. – Farg‘ona: Klassik, 2020.

4. Jabborov N. Adabiyot va milliy ma’naviyat. – Toshkent: "Ma’naviyat", 2011.

5. Oripov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Sharq, 2001.